



## BIOLOGIYANI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Tursunboyeva Sadoqat Bakirjon qizi,  
Xomidjonova Mohina Isroiljon qizi**  
Andijon davlat pedagogika instituti  
biologiya yo`nalishi 3-bosqich talabalari

**Annotatsiya:** Bugungi zamonaviy ta'limni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi faol usullar o'quvchilarga darsni tushintirishda amaliy ko'makchi vazifasini bajarmoqda. An'anaviy darsdan farqli o'laroq, metodlardan foydalanib dars o'tilganda o'quvchilar faqatgina tinglovchi bo'lib qolmay balki darsda fikr almashinib, o'zaro hamkorlikda ishlaydilar, eng muhim tomoni shundaki bu metodlar o'quvchilar ongini, mustaqil fikrlashini o'stirmoqda. Demak, interfaol usullardan dars jarayonida foydalanilganda barcha ishtirokchilar faollashuvi kuzatilmogda.

**Kalit so'zlar:** Interfaol usullar, metod, strategiya, biologiya, o'quvchi, innovatsion texnologiya.

**Abstract:** Today's modern education cannot be imagined without interactive methods. Active methods that reveal the content of the lesson quvchilarga darsni tushintirishda amaliy ko'makchi vazifasini bajarmoqda. An'anaviy darsdan farqli o'laroq, metodlardan foydalanib dars o'quvchilar faqatgina tinglovchi bo , but exchange ideas and work together in the lesson. The most important thing is that these methods increase students' consciousness and independent thinking. So, when interactive methods are used in the course of the lesson, the activation of all participants is observed.

**Key words:** Interactive methods, method, strategy, biology, student, innovative technology.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni bilim salohiyatining rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Biologiya fanini o'qitishda ham interfaol usullardan foydalanish darsning qiziqarli, mazmunli, samarali, va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Dars jarayonida o'quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to'g'ri va maqsadli foydalanish, har bir o'tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta'riflarni o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biologiya dars mashg'ulotlarida zamonaviy interfaol usullardan o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. Metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra qiziqarli va foydali bo'ladi. O'tilgan dars o'quvchilar xotirasida yaxshiroq saqlanib qoladi, hamda ularning mustaqil fikrlashga undaydi. Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham, asosan yosh-avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir

Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorgarliklarida o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish



ko`nikmalariga ega bo`lishlari kerak. Shu sababli hozirgi kunda biologiya darslarida ham interfaol metodlardan keng foydalanib dars o`tish, o`quvchilarni to`liq o`quv jarayoniga jalb qilish tobora takomillashib bormoqda.

Interfaol metodning an'anaviy metoddan farqli tomonlarini ko'rib chiqish lozim. Birinchidan, darsda barcha mavzular bo'yicha o`quvchi uchun qulay bo'lgan tarzda o`tiladi. Interfaol metodlarida ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Ikkinchidan, Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko`nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlansa, faol metodlardan foydalanib o`tilgan dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o`rgatiladi. Uchinchidan, o`qituvchining vazifalari Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berishdan iborat bo'lsa, noan'anaviyda o`qituvchilar o`quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tekshirib, o`quvchilarni boshqarib, nazorat, yakuniy xulosalarini asoslab beradi. To`rtinchidan, Darsga tayyorgarlikka dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash kabi talablar qo'yilsa, interfaol metodda Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, ko`rgazmali qurollar boshqa zarur vositalarni tayyorlashadi. O`quvchilar tayyorgarligi esa, oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish talablari berilsa, yangi metodda yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilib kelish talabi qo'yiladi. Interfaol usullarda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o`quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, o`zaro fikr almashishi, mulohaza qilishi, o`z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o`qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o`zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.

Bugungi kun biologiya o`qituvchidan ilg'or interfaol usullardan va yangi axborotlar texnologiyalaridan o`quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda.

### **Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi.**

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O`quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va boshqalar.

Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zigzag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Hozirgi kunda biologiya fanini o`qitishda keng foydalanilayotgan Interfaol grafik organayzerlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin.



“Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar. Bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q. Interfaol ta’lim metodlarini ko’pincha turli shakllardagi o’quv mashg’ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo’llanilmoqda. Bu metodlarni qo’llash mashg’ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, biologiya darslarida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara beradi va biologiya darsini o’tishda yangi turli xil metodlardan foydalanilganda o’quvchilarni biologiya faniga bo’lgan qiziqishlari ortradi, o’qituvchilar har tomonlama faol, o’quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo’yicha faol bo’lishadi.

Biologiya darslarida interfaol innovatsion usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Ta’lim tizimi o’z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo’yar ekan, kelgusida biz bo’lajak o’qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo’llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o’z xissamizni qo’shishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. G.Yo’ldoshev., S.A.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent. “O’qituvchi” 2004 y.
2. N.N. Azizxo’jaeva. “Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat” Toshkent. “AvtoNashr”.
3. O.U.Avlayev, S.N. Jo’rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quvslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017
4. Toshtemirova Mokhira Makhmud qizi, & Jurakulova Durдона Shuxratovna. (2023). Parasites of the Oral Cavity. Genius Repository, 25, 19–20. Retrieved from <https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/176>
5. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICROSTOMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(9), 300–304. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572>
6. Makhmudovna, T. M., & Makhmaminovna, K. D. (2023). THE COURSE OF MALFORMATION AND CORNEAL EROSION IN TUBERCULOSIS PATIENTS. Open Access Repository, 4(03), 60-66.
7. Кароматов, И. Д., & Гулямов, Х. Ж. (2017). Медицинские вопросы, освещенные в Библии. Биология и интегративная медицина, (4), 55-75.
8. Gulyamov, X. (2023). INTER-ETHNICITY IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE.



Interpretation and Researches, 1(12). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1314>

9. Bafoevich, U. B., Rasulovna, K. R. N., & Ziyodulloevna, K. S. (2021). REACTION OF 1, 1, 1-TRIFLUOROMETHYL-4-PHENYLBUTANEDIONE-2, 4 WITH BENZOIC ACID HYDRAZIDE. INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY, 9(3), 939-944.
10. Rasulovna, K. R. (2023). Complex Nickel (Ii) Compounds Based on Acylhydrazones of Aroyltrifluoracetylmethanes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 3-5.

